

**2021- yilning yanvar-iyul oylarida  
Farg'ona viloyatida  
Xizmatlar sohasining  
rivojlanishi**

Farg'ona - 2021

## Dastlabki ma'lumotlar

120,6 %

O'sish sur'ati

69,2 %

Kichik  
tadbirkorlikning  
ulushi

9 397,1  
mlrd. so'm

Xizmatlar hajmi

### Xizmatlar sohasi

2 449,5  
ming so'm

Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan  
xizmatlar

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli  
xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib,  
ishlab chiqarish samaradorligini  
oshirishga yordam beradi

Farg'ona vilyatining iqtisodiy holatini baholashda xizmatlar sohasining ko'lami, tarkibi va rivojlanish darajasi alohida o'rinn tutadi.

2

Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

## Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-iyul oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **9 397,1 mldr. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **2 245,2 mldr. so'mga** oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **120,6 %ni** tashkil etdi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

*(2021- yil yanvar-iyul oyida)*

**2 245,2  
mldr. so'mga**

Hajmning  
o'sishi

**9 397,1  
mldr. so'm**

Xizmatlar hajmi

**120,6 %**

O'sish sur'ati



**3**

Farg'ona viloyati xizmatlar sohasining  
rivojlanishi


*2021- yil yanvar-iyul oylarida*

## Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yilning yanvar -iyul oyida)	Hajmi, mldr. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>9 397,1</b>	<b>120,6</b>
<b>shu jumladan:</b>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	488,9	115,6
Moliyaviy xizmatlar	1 738,7	126,7
Transport xizmatlari	1 945,8	127,7
<b>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</b>	<b>1 838,9</b>	<b>126,1</b>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	213,7	111,7
Savdo xizmatlari	2 982,8	111,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	247,6	128,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	343,6	117,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	196,9	145,7
Ijara xizmatlari	221,4	125,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	265,0	132,6
Shaxsiy xizmatlar	488,7	121,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	74,6	117,9
Boshqa xizmatlar	189,4	125,3

## Dastlabki ma'lumotlar

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, %da




Jamiga nisbatan yuqori ulushga ega savdo xizmatlari (**31,7 %**), transport xizmatlari (**20,7 %**), shuningdek, moliyaviy xizmatlar (**18,5 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**5,2 %**) qayd etildi.

## Dastlabki ma'lumotlar

### 2021- yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan transport xizmatlari tarkibi, %

2021-yil yanvar-iyul oylarida transport xizmatlari hajmi Farg'ona viloyatida 1 945,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 1 838,9 mlrd. so'mni, jami transport xizmatlarining 94,5 %ni tashkil etadi.



## Dastlabki ma'lumotlar



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-iyul oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida savdo xizmatlarining ulushi **31,7 %**ni tashkil etdi, bu esa **2 982,8 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilda ularning hajmi **2 410,3 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmida **33,7 %iga** to'g'ri keldi.

### Savdo xizmatlari

2 410,3

Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm

2 982,8

96,7

O'sish sur'ati, %da

111,6

2020- y. yanvar-iyul

2021- y. yanvar-iyul

7

Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining  
rivojlanishi

2021- yil yanvar-iyul oylarida

## Dastlabki ma'lumotlar



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

### Moliyaviy xizmatlar

(2021- yilning yanvar-iyul oylarida)



Ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi **18,5 %**ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020 - yilda ularning ulushi **18,6 %**ni tashkil etdi.



O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **410,1 mlrd. so'mga** ko'payishi kuzatildi.



Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **126,7 %**ni tashkil etdi.



8

Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

2021- yil yanvar-iyul oylarida

## Dastlabki ma'lumotlar




Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.



### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yilning yanvar-iyul oylarida)

2021- yilning yanvar-iyul oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarning hajmi **488,9 mlrd. so'm** darajasida belgilandi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdagи xizmatlarning o'sish sur'ati **115,6 %**ga yetdi.



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilda ushbu xizmat turi hajmi **418,9** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi hajmining **5,8 %**ga teng bo'ldi. O'sish sur'ati **113,6 %**ni tashkil etdi.

## Dastlabki ma'lumotlar



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

### Ta'lif sohasidagi xizmatlar

284,3  
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi

343,6  
mlrd. so'm

2020- y.  
yanvar-  
iyul



2021- y.  
yanvar-  
iyul

2021- yilning yanvar-iyul oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **343,6** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi ulushi **3,7** %ni tashkil etdi. 2020- yilga nisbatan **117,3** %ni tashkil etdi.

108,4 %

2020- yilga nisbatan  
%da

117,3 %



Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining  
rivojlanishi

2021- yil yanvar-iyul oylarida

## Dastlabki ma'lumotlar



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm

165,3

2020- y.

Yanvar-  
iyul

213,7

2021- y.

2020- yilga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **48,4** mlrd. so'mga ko'paygan.

11

Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining  
rivojlanishi

2021- yil yanvar-iyul oylarida

## Dastlabki ma'lumotlar



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

### Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

#### Yanvar-iyul

**2020- y.**

119,1 mlrd.  
so'm

Xizmatlar  
hajmi

**2021- y.**

196,9 mlrd.  
so'm

1,7 %

Xizmatlar-  
ning jami  
hajmidagi  
ulushi

2,1 %



12

Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining  
rivojlanishi

2021- yil yanvar-iyul oylarida

# FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yilning yanvar-iyul oylarida)	Hajmi, mld. so'm	O'sish sur'ati, %da
Farg'ona viloyati	9 397,1	120,6
Farg'ona sh	3 439,3	124,5
Qo'qon sh	1 768,2	126,9
Quvasoy sh	206,7	111,3
Marg'ilon sh	569,5	109,1
Oltiariq t	322,9	115,1
Qo'shtepa t	194,3	110,6
Bag'dod t	187,3	108,5
Buvayda t	317,2	127,6
Beshariq t	196,1	107,2
Quva t	252,3	109,5
Uchko'prik t	372,1	126,7
Rishton t	263,4	115,9
So'x t	112,4	122,8
Toshloq t	241,8	111,5
O'zbekiston t	203,7	110,3
Farg'ona t	263,1	118,3
Dang'ara t	181,6	109,7
Furqat t	142,1	127,7
Yozyovon t	163,3	129,0

## Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoque.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

#### Xizmatlar hajmi

#### Hajmning o'sishi

**2 449,5  
ming so'm**

**550,9 ming  
so'm**

2021- yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 449,5** ming so'mga yetdi.

2020- yilga nisbatan **118,4 %**ni tashkil etdi.

118,4 %

#### O'sish sur'ati

#### Taqqoslash uchun:

2020-yilda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **1 898,6** ming so'mni tashkil etdi.

Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi


2021- yil yanvar-iyul oylarida

## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1-avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **65,7 %**, sanoat **21,8 %**, qurilish **7,7 %**ga yetdi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi **4,8 %**ga to'g'ri keladi.

### 2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, %da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

#### Sanoat



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi.  
Tel.: 73-241-98-82

Farg'ona viloyatida xizmatlar sohasining  
rivojlanishi

15